

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

Sh.Abdugʻaffor

XX asr boshlarida Fargʻona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Taʼlimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.QodirovaXX asrning 20-30 yillarida Oʻzbekiston SSR maktablarida tarix fanining
oʻqitilishi masalalari 111**J.Sultonov**

Chingizxonning tangut davlatini egallash yoʻlidagi oʻziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qatagʻon siyosati qurboni boʻlgan jadidlarning rehabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yoʻlchiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsomov

Mustaqillik yillarida Fargʻona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga taʼsiri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik anʼanalari bilan bogʻliq nomoddiy madaniyat (Fargʻona vodiysi misolida) 141

F.I.QayumovaXX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar
(Fargʻona vodiysi misolida) 147**B.A.Usmonov**

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



UO'K: 39.394.394.012

DEHQONCHILIK AN'ANALARI BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIYAT (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)**НЕМАТЕРИАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА, СВЯЗАННАЯ С СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМИ ТРАДИЦИЯМИ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)****INTANGIBLE CULTURE RELATED TO AGRICULTURAL TRADITIONS (EXAMPLE OF FERGANA VALLEY)****Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xo'jalik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar hususida fikr yuritiladi. Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida qadimiy falsafiy, diniy, taqvimiy tasavvurlari hamda xo'jalik an'analari bilan bog'liq urf-odat, marosim va bayramlar mavjud. Jamoaviy hayot o'zida turli an'analarni mujassam etgan. Ular asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelmoqda. Mazkur urf-odat va marosimlarni taqvimiy, mehnat, oilaviy va diniy kabi guruhlariga bo'lish mumkin. Ushbu qadimiy an'analarni o'zida yangicha ko'rinishlarni ham mujassam etgan holda xalqimiz turmush tarzida hozirga qadar yashab kelmoqda.

Аннотация

В данной статье рассматривается нематериальное культурное наследие, связанное с хозяйственными традициями. В образе жизни жителей Ферганской долины присутствуют обычаи, обряды и праздники, связанные с древними философскими, религиозными, календарными представлениями и хозяйственными традициями. Общинная жизнь воплощает в себе различные традиции. Они передавались по наследству от предков к поколениям на протяжении веков. Эти обычаи и обряды можно разделить на такие группы, как календарные, трудовые, семейные и религиозные. Эти древние традиции, вобравшие в себя новые аспекты, до сих пор живут в образе жизни нашего народа.

Abstract

This article discusses intangible cultural heritage related to economic traditions. In the lifestyle of the people of Ferghana Valley, there are customs, ceremonies and holidays related to ancient philosophical, religious, calendrical concepts and economic traditions. Community life embodies various traditions. They have been inherited from ancestors to generations for centuries. These customs and ceremonies can be divided into such groups as calendar, labor, family and religious. These ancient traditions, incorporating new aspects, have been living in the lifestyle of our people until now.

Kalit so'zlar: xo'jalik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar, taqvimiy, mehnat, oilaviy va diniy marosimlar, "solnoma" va "haftanoma", "Xizr buva", "xisobiy mardiy".

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, связанное с хозяйственными традициями, календарь, труд, семейные и религиозные обряды, «календарь» и «еженедельник», «Хызр бува», «Хисаби мардий».

Key words: intangible cultural heritage related to economic traditions, calendar, work, family and religious ceremonies, "calendar" and "weekly", "Khizr Buva", "Khisabi Mardiy".

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan sanadan boshlab bugungi globallashuv jarayonida tobora unutilib borayotgan milliy an'ana va urf-odatlarimiz, milliy o'yinlarimiz, bir so'z bilan aytganda nomoddiy madaniy merosimizni tiklashga, ularni saqlab qolish va rivojlantirish juda katta e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, 2023-yil oxirida mamlakatimiz rahbarining "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarorlari bu sohani yanada keng xalq ommasiga yetkazish, uni ilmiy jihatdan tadqiq etishga keng yo'l ochib berdi.

Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida qadimiy falsafiy, diniy, taqvimiy tasavvurlari hamda xo'jalik an'analari bilan bog'liq urf-odat, marosim va bayramlar mavjud. Jamoaviy hayot o'zida turli an'analarni mujassam etgan. Ular asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelmoqda. Mazkur urf-odat va marosimlarni taqvimiy, mehnat, oilaviy va diniy kabi guruhlariga bo'lish mumkin.

Ushbu qadimiy anʼanalar oʻzida yangicha koʻrinishlarni ham mujassam etgan holda xalqimiz turmush tarzida hozirga qadar yashab kelmoqda.

Fargʻona vodiysi mintaqamizning eng qadimiy madaniy oʻchoqlaridan biri hisoblanadi. Tahminan koʻra, miloddan avvalgi 2-mingyilliklardayoq bu yerda dehqonchilik madaniyati taraqqiy eta boshlagan.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fargʻon vodiysidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati tarixi, dehqonchilik marosimlari va ularning genezisini tadqiq qilishda oʻtmish ajdodlarimiz turmush tarzini oʻrganishda, tarixiy jarayonlarni rekonstruksiya qilishda hamda xalqimizning qadimgi davlatchilik anʼanalari va mintaqadagi qadimgi urbanistik jarayonlarni ilmiy-asosli tarzda oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, dehqonchilik anʼanalari qadimiy ildizlarga bogʻlanishi bilan birga oʻziga xos marosimlarga ham ega boʻlgan. Har bir dehqonchilik mavsumida aynan bir vaqt takrorlanuvchi ish jarayoni turli anʼana va urf-odatlarini shakllanishiga sabab boʻlgan.

Tarixiy etnografik adabiyotlardan bilish mumkinki, qadimdan oʻtroq hayot kechirgan xalqlar hayotida dehqonchilik asosiy mashgʻulot turlaridan biri hisoblangan. Dehqonchilik madaniyatining rivojlanib borishi barobarida xalq orasida u bilan bogʻliq bilim va malakalar, qolaversa urf-odat va anʼanalar shakllanib borgan. Bugungi kunda dehqonchilik bilan bogʻliq urf-odat va marosimlarni etnografik yoʻnalishda tadqiq etish xalqimizning oʻtmishdagi ijtimoiy hayoti va mafkurasini, hamda koʻplab marosimlarimizni kelib chiqish tarixi va idizlarini oʻrganishda muhim manba boʻlib xizmat qilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maʼlumki, asrlar davomida dehqonchilik xoʻjaligini yuritish boʻyicha toʻplangan katta tajriba va usullar, nozik fenologik kuzatishlar kashf qilingan. Bular asosida oʻziga xos dehqonchilik anʼanalari hamda marosimlari shakllangan. Taʼkidlash joizki, mazkur anʼanalarda diniy-mifologik qarashlar muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman olganda, dehqonchilik bilan bogʻliq urf-odatlar, marosimlar xalq tafakkurining gʻaroyib moʻjizalaridan biridir. Oʻzbek xalqi ham qadimdan ularga amal qilish barobarida ularga taalluqli qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarini yaratgan.[2]

Dehqonlarimizning tabiat inijliklari oldidagi oqizligi, sermashaqqat mehnati evaziga yetishtirilgan hosilning tabiiy ofatlar tufayli nobud boʻlishi va tabiatning nomaʼlum koʻrinmas kuchlaridan qoʻrquv va muammolardan qutulish choralarini izlash ham dehqonchilik bilan bogʻliq qator magik marosimlar bajarilishiga asos hisoblangan. Mazkur marosimlar va urf-odatlar ildizi juda uzoq davrga borib taqalib, qadimgi animistik tasavvurlar bilan bogʻliqdir. Dehqonchilik bilan bogʻliq ravishda oʻtkazilgan urf-odatlar, marosimlar turli agrar kultlarning magik (sehrgarlik) kuchiga boʻlgan ishonch asosida shakllanib kelgan.

Taniqli nemis folklorshunos olimi V. Mannxardt ilk bor dehqonchilik bilan bogʻliq turli afsonalar va obrazlarda oʻsimliklar olamining jonlanishi sirlari namoyon boʻlishi muammosini ilgari surgan edi. Olimning aniqlashicha, ruhning oʻsimlikka evrilishi toʻgʻrisidagi quyi mifologiya yuqori ilohlar toʻgʻrisidagi mifologiyaga asos boʻlgan. Aynan quyi mifologiya oʻziga xos yashovchan boʻlganligi tufayli, uning izlari dehqonchilik marosimlarida yaxshi saqlanib qolgan.

Darhaqiqat, dehqonchilik bilan bogʻliq ravishda oʻtkazilgan urf-odatlar, marosimlar turli agrar kultlarning magik (sehrgarlik) kuchiga boʻlgan inonch asosida paydo boʻlgan. Shu sababli dehqonchilik bilan bogʻliq udum va marosimlarning koʻplari islomgacha boʻlgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sigʻinishga asoslangan edi.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari qatori vodi y oʻzbeklari ham dehqonchilik anʼanalarini Sharq xalqlari taqvimini asosida olib borgan. Bahorgi dala ishlari, mahalliy taqvimga koʻra, yangi yil – quyoshning baliq (hut) burjidan qoʻy (hamal) yulduzlar turkumiga oʻtgan vaqtdan boshlangan. Hozirgi amaldagi oy kalendari boʻyicha bu 21-martdan boshlanib 21-aprelgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi.

Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish joizki, oʻzbeklarda bahorgi dastlabki yerga ishlov berish ishlarida baʼzan hafta kunlariga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Masalan, Andijonda bahorgi yer haydashni shanba kuni boshlashni maqul deb bilganlar. Oʻzbek xalqining ajdodlari qadimdan hafta kunlarini va oʻsha kunlari roʻy beradigan tabiat hodisalarini kuzatib, maxsus “solnoma” va “haftanoma”lar tuzishganki, bu manbalarda haftaning qaysi kuni qanday ishlari amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligini belgilab bergan. Masalan, haftanomada shunday bitiklarga duch kelishimiz mumkin:

TARIX

“Shanba (Zuhal)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir, bir donaga ming dona barakat berur, hargiz befoyda bo‘lmas.

Yakshanba (Quyosh)-dehqonchilik qilmoq yaxshi emas, ofat tushgay.

Dushanba (Oy)- dehqonchilik qilmoq yaxshidir.

Seshanba (Mirrix)-agar ziroat qilsa, qurt, sichqon yo hayvondin ul ziroat shikast topgay.

Chorshanba (Atorud)- ammo dehqonchilik qilmoq yaxshidir, barakat paydo bo‘lur, xirmon olmoq yaxshidir.

Payshanba (Mushtariy)-hamma korlarga yaxshidir.

Juma (Zuhra)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir”.[3]

Dehqonchilik bilan bog‘liq o‘ziga xos mahalliy agromadaniyat an‘analarida bahorgi ekish mavsumida dalaga birinchi qo‘sh chiqarish marosimi muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Chunki yetishtirilgan hosilning mo‘l bo‘lishi va yil barakali kelishi ekish mavsumining o‘z vaqtida sifatli o‘tkazilishiga bog‘liq bo‘lgan.[4]

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida dehqonchilik homiysi hisoblangan Bobodehqon kulti va ushbu kult bilan bog‘liq holda bajariluvchi juda ko‘plab urf-odat va rasm-rusumlar keng tarqalgan. Aniqrog‘i, dehqonchilikda o‘tkaziladigan barcha urf-odat va marosimlarda, shuningdek, urug‘ qadashda uni parvarishlash va yig‘ib olishda “Bobodehqon”ga e‘tiqodda bo‘lingan. Dehqonchilik homiysi hisoblangan Bobodehqon xalq orasida o‘zining qator ijobiy xislatlari bilan ajralib kult tarzda mashhur bo‘lgan. Shuning uchun mahalliy dehqonlar tasavvurida u halol mehnat bilan kun ko‘ruvchi, boshqalar haqidan hazar qiluvchi dehqonlarning halol mehnatining rivojiga va hosiliga baraka ato etuvchi pir hisoblangan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Bobodehqon kultiga o‘xshash dehqonchilik kultlariga e‘tiqod qilish, yer yuzining boshqa hududlarida, chunonchi, Hindiston, Hindixitoy Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika dehqonlari orasida ham uchraydi.[5]

Farg‘ona vodiysi aholisi orasida “Bobodehqon” kulti bilan bir vaqtda “Xizr buva” kulti ham ommalashgan. Ushbu kult vodiylar aholisi hamda O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari tasavvurida ezgu-savob ishlarni amalga oshiruvchi, insonlarga yordam qo‘lini cho‘zuvchi, adashganlarga yo‘l ko‘rsatuvchi, turli mushkulotlardan xalos etuvchi avliyo sifatida namoyon bo‘lgan. Vodiylar aholisi dehqonchiligi baroridan kelgan, omadi chopgan kishilarni “Xizrnazar” odam “Xizr suygan”. Etnolog A.Ashirov dehqonchilik xo‘jalik an‘analariga bog‘liq holda keng tarqalgan “Bobodehqon” kultining kelib chiqish asosiga ko‘ra, Mitra ilohi bilan bog‘liqligini tarixiy-etnografik materiallar asosida isbotlashga harakat qilgan.[6]

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an‘anaviy dehqonchilik marosimlari tizimida osmon va sayyoralar harakati bilan bog‘liq qator urf-odat va marosimlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham dehqonlar yulduzlar harakati, Quyosh va Oyning holatiga qarab ob-havo qanday bo‘lishini aniqlay olishgan. Dehqonchilikda fasllarning bunday bo‘linishlari haqida rus tadqiqotchilardan biri N.Nalivkin to‘xtalgan.[7]

Farg‘ona vodiysida dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan yil hisobining boshqa bir qator usullari ham mavjud bo‘lgan. Jumladan vodiylar dehqonlarda o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan usullardan biri – inson tana a‘zolariga qarab hisoblash usulidir. Bunday usulni So‘x tumanida “xisobiy mardiy” deb yuritilgan.[8]

Farg‘ona vodiysida erta bahorda dehqonchilikni yaxshi biladigan keksalar dalalarga chiqib tuproqni shudgorlash uchun yetilgan yoki yetilmaganini aniqlashgan. Agar yer haydash uchun tayyor bo‘lsa, dehqonchilikning yana bir udumi hisoblangan “shoxmoylar” marosimi o‘tkazilgan. Ushbu marosim udumga ko‘ra qozon osilib, unga yog‘ quyib qizdirilgan va unda bo‘g‘irsoq va chalpak pishirilib, so‘ngra xuddi shu qozondagi yog‘ bilan oiladagi keksaroq kishi ho‘kizning shoxini, elkasini, tuyoqlarini va, hatto, irim qilib omochning tishini ham moylagan. Ushbu marosim vodiylar So‘x tumani tojiklarida “govxunukkunon” yoki “yug‘munon” deb atalgan. Ushbu marosim O‘rta Osiyoning boshqa dehqonchilik hududlarida ham mavjud bo‘lgan.[9]

Folklorshunos B. Sarimsoqovning ta’kidlashicha, “Shoxmoylar marosimi dehqonlar bilan bog‘liq urf-odatlarining eng asosiysi bo‘lib, bu udum ziroatchilik marosimlariga yo‘l ochgan. Shuning uchun dehqonlar shoxmoylarni alohida quvonch hamda zo‘r tantana bilan o‘tkazishga katta e‘tibor berganlar”. [10] Shoxmoylar paytida ho‘kizlarga ko‘z tegmasligi uchun irim qilinib tumorlar taqilgan. Shoxmoylar marosimlarining barcha rasm-rusumlari qilingach, mulla tomonidan “dehqonchilik risolasidan” parchalar o‘qilgan. Shoxmoylarni, ya‘ni dalaga dastlabki qo‘sh chiqarish marosimini

o'tkazish kunini odatda qishloq oqsoqollari belgilab berganlar. Bu kunlar esa dushanba, chorshanba va juma kunlaridan biriga to'g'ri kelishi lozim. Hindistonning shimoliy rayonlarida yashaovchi xalqlar tasavvurida, ona yer har oyda olti kun uxlaydi. Bu kunlar oyning 5, 7, 9, 11, 21, 24-kunlariga to'g'ri keladi. Binobarin, mana shu kunlar yerga qo'sh solib bo'lmaydi.[11]

"Avesto"da ta'kidlanishicha, kimda-kim yerga o'ng-u so'l, so'l-u o'ng qo'llari bilan ishlov bersa, mo'l-ko'l bug'doy sepsa, unga tuganmas boylik va baxt ato qilinar ekan.[12]

Farg'ona vodiysi aholisi dehqonchilikda yana xalq taqvimlariga ham katta e'tibor berganlar va hatto, vodiya ushbu dehqonchilik va boshqa taqvimlar bilan bog'liq turli marosimlar ham o'tkazilgan. Shuningdek, vodiya ekinni parvarishlash, yog'ingarchilik hamda namgarchilik bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos urf-odat va marosimlar ham o'tkazilib, bular vodiya an'anaviy dehqonchiligida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. "Devonu lug'otit turk"da keltirilishicha, ekinzorlarni yomon ko'zlardan saqlashda quyiladigan qo'riqchi qadimda "abaqi" deb atalgan bo'lsa, xosilni qushlardan qo'riqlash uchun qo'yilgan qo'riqchi "kosgo'k" deb nomlangan[13].

Farg'ona vodiysi aholisi orasida hosilni yig'ib olish va saqlash bilan ham bog'liq bir qator o'ziga xos rasm-rusumlar shakllanib kelgan. Tabiiyki, hosil pishib etilgandan so'ng, uni yig'ishtirib olish tayyorgarliklari boshlangan. Avvalo, hosilni yig'ib olish uchun mo'ljallangan o'roq va boshqa mehnat qurollari sozlangan. Hosil o'rim-yig'imini boshlash uchun mahalla oqsoqoli va imomi kekxa dehqonlar, tajribali o'rimchilar hamda mahalliy taqvim hisobdonlari bilan maslahatlashgan holda biror kunni belgilab olganlar. Bu mavsum dehqonchilikning eng mas'uliyatli davri hisoblanib, unga qishloq oqsoqoli va kekxa dehqonlar boshchilik qilishgan. O'rim-yig'im, asosan, vodiya qishloqlarida "hashar" yo'li bilan amalga oshirilib, u qachon, kimning dalasida uyushtirilishi oqsoqol tomonidan belgilangan. O'rimga qishloqning barcha ishga yaroqli erkaklari jalb etilgan. Bu davrda hech kim chetda turmagan, dangasa, ishyoqmas kishilar qattiq tanqid ostiga olinib, xalq orasida izza qilingan. Ayrim o'ziga to'q boy xonadonlar hosilni tezroq yig'ib olish maqsadida chetdan ham yollanma ishchi olganlar, hosil o'rimchilari vodiya "o'roqchi", "o'rimchi" yoki tojiklarda "daravgar", "dastkash" nomlari bilan yuritilgan. Har bir o'rimchi ishni boshlashdan avval: "Bismillahir rohmانيr rohim, ey Olloh ishimizga o'zing baraka ber bizni Bobodehqonu, Xizr buvalarning ruxlari qo'llab, hosilimiz mo'l, risqimiz ulug' bo'lsin", deya duo qilgan. O'rimni kekxa dehqonlar ramziy ma'noda boshlab berishgan. So'ng o'rimni yosh o'roqchilar ko'tarinki kayfiyat bilan davom ettirishgan. Hosil o'rishning vodiya "kaptar dumi", "g'avza" kabi usullari mavjud bo'lib, ularning qay biri o'roqchi uchun qulay bo'lsa, u shu usuldan foydalangan.[14]

Farg'ona vodiysi aholisi orasida hosil o'rim-yig'im davrida "quyon qochdi" marosimi ham o'tkazilib, u vodiyaning So'x tumanida "Taloshak" deb ham yuritilgan. Shunga o'xshash marosimlar O'rta Osiyoning boshqa dehqonchilik hududlarida ham o'tkazilib, ular "shog'ol ketdi", "tulki qochdi" nomlashgan. Ushbu marosimga ko'ra o'rim mavsumi oxirida hosilni oz qolgan qismini o'roqchilar har tarafdin o'rib kela boshlashadi. Bu paytda atrofdagi kuzatuvchilar va o'roqchilar "quyon qochdi" deb qichqira boshlashadi. Bu paytda oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish uchun harakat qilinadi. Kimda kim oxiri bir tutam bug'doyni qo'lga kiritisa, o'sha o'roqchi omadli hisoblangan. O'rimni bu usulda tezlatishdan maqsad vodiylarlarda yer hosil tugay boshlashi bilan o'lishni boshlaydi. Agar tezda o'rim nihoyasiga etkazilsa, u qiynalmaydi degan tushunchalarga ishonishgan.

Hosil o'rib bo'lingach, yanchish uchun xirmon tayyorlangan. Xirmonga hosil yig'ib bo'lingach barcha dehqonlar, qishloq oqsoqollari va soliqchilar yig'ilishgan. Shu kuni xirmonning o'zida biror-bir jonliq so'yilib, is chiqarilgan va o'sha yerning o'zida taom tayyorlangan. Bu "Xirmon oshi" deb atalib, uni xirmondagi hosil egasi uyushtirgan.

Hosilni yanchish mobaynida, mehnati og'ir bo'lganligi sababli, dehqonlar bir qancha o'ziga xos qo'shiqlarni kuylashgan. Bu qo'shiqlar ichida xalq orasida ommalashgani "Mayda" qo'shig'i hisoblanadi. Ushbu qo'shiq satrlarida ish hayvonining ildam yurishi, xirmonni tezroq yanchishi dehqonni sevinch tuyg'ulari bilan qo'shilib, ruhiy ko'tarinkilik hosil qiladi. Xirmon qo'shiqlarida umid va xursandchilik bag'ishlovchi satrlar ko'p. Negaki, dehqon og'ir va mashaqqatli kunlar orqada qolganligini ko'rib turibdi. Shunday paytda dehqon o'zining xirmoniga baraka tilaydi.

Hosil yanchilgandan so'ng, uni shamolga sovurushgan. Shamolning tez va sekin esishiga qarab, "Quyug' shamol" hamda "Suyug' shamol" deb atashgan. Agar shamol esmasa, dehqonlar shamol piriga atab jonliq so'yib is chiqarishgan. Farg'ona vodiysida shamol haqida ikki xil qarash mavjud bo'lib, Qo'qon va Andijon atroflarida shamol g'ordan kelib chiqadi deb qaralsa, Marg'ilon, O'sh, O'zgan atroflarida shamol homiysi sifatida qari ayol tasavvur qilingan.[15] Vodiya shamol piri sifatida Yalang'och ota va Xaydar kultiga ham sig'inilgan.[16]

TARIX

O'zbek xalqining umrboqiy marosim va udumlaridan biri – xirmon ko'tarish bilan bog'liq udum va marosimlar hisoblanadi. XIX-XX asr boshlarida ham xirmon ko'tarish bilan bog'liq bir necha urf-odatlar va marosimlar nishonlangan. Etnografik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, bunday odatlar-u marosimlarda xalqqa xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlar-bag'rikenglik, saxiylik, tantilik, kamquvvatlarga yordam berish kabi chinakam xalqchil va umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topgan.

O'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq qarashlar va marosimlarni kuzatar ekanmiz, yer, don va nonga bo'lgan o'ziga xos hurmat ehtiromni turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasidagi xalqona qarashga ko'ra bug'doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o'sgan. Shu bois ushbu o'simliklar va mevalar doimo e'zozlangan. Ayniqsa xalq orasida yerga bug'doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug'doy ekilgan maydonlarni oyoq osti qilish gunoh hisoblangan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari qadimiy odatga ko'ra g'alla somonini hech qachon o'choq va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yoqish og'ir gunoh deyiladi.[17]

XULOSA

O'zbek xalqining an'anaviy dehqonchilik mashg'uloti bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarida bo'lib, qayta tiriluvchi tabiat kulti izlari, garchi qoldiqiy ko'rinish tarzida bo'lsa-da, yetib kelganini va aksariyat holatlarda islomiy qarashlar bilan o'zaro sinkretik tarzda bajarilganligini kuzatish mumkin. Islom dinining dehqonchilik xo'jalik turi bilan bog'liq arxaiik kultlarga nisbatan bag'rikengligi qadimiy diniy-mifologik tasavvurlar asosidagi dehqonchilik rasm-rusumlari va urf-odatlaridan ko'zlangan asosiy maqsad sof diniy ta'limot bilan emas, balki hayot davomiyligini ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, ya'ni mo'l-ko'l hosil yetishtirish va uni nobud qilmay yig'ib olishga qaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Farg'ona vodiysi dehqonchiligidagi urf-odatlar va marosimlar o'zining mahalliy xususiyatlari va jihatlari bilan ajralib turgan. Ushbu marosimlar ham vodiylar dehqonchilik madaniyatining o'ziga xos qirralaridan biridir. Ana shu dehqonchilik madaniyati rivojlanishi jarayonida shakllangan urf-odatlar dehqonlarning o'zlariga ma'qul tushganligi uchun ham ularning ijtimoiy hayotidan muhim o'rin egallagan. Farg'ona vodiysi aholisining dehqonchilik bilan bog'liq bilimlariga yana dehqon taqvimini bilan bog'liq hisob-kitoblar hamda fenologik kuzatuvlarni ham qo'shishimiz mumkinki. Zero, bular ham ajdodlarimizning asrlar osha to'plagan ma'naviy tafakkuri va ongining mahsulidir.

Vodiy o'zbeklarining an'anaviy dehqonchilik madaniyatini o'rganish mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniyati hamda turli tarixiy davrlarda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida transformatsiyalashuvini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Sharq. Toshkent. 2001. 49-bet
2. Исоқов З.С. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Янги нашр. Т. 2011 82-б
3. Turlboyev T. Haftanoma. Toshkent grammplasinka zavodi bosmaxonasi. Toshkent, 1990. 2 – 8- b.
4. Jo'rayev M. O'zbek xalq agrar marosimlari tizimida "shox moylar" yoki "birinchi qo'sh" udumi // O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. – Toshkent, 2006. – 84- b.
5. Токараев С.А. Ранние формы религии и их развитие. – М.: Наука, 1964. с. 383.
6. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007. B. 14 – 46.
7. Nalivkin V. P. // TV. 1880. – №5.
8. Исоқов З.С. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Янги нашр. Т. 2011 89-б
9. Исоқов З.С. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Янги нашр. Т. 2011 92-б
10. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Fan. Toshkent, 1986. – 50- b.
11. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Fan. Toshkent, 1986. – 50- b.
12. Is'hoqov M. "Avesto"da chorva va chorvador // Akademik YAh'yo G'ulomov nomidagi respublika ilmiy seminarining O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar mavzusidagi 37-yig'ilish materiallari. – Toshkent, 2007. – 45 – 50- b.
13. Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'otit turk". II tom. – 155, 334- b.
14. Исоқов З.С. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Янги нашр. Т. 2011 103-б
15. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Fan. Toshkent, 1986. – 112- b.
16. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Fan. Toshkent, 1986. – 136- b.
17. Ashirov A.A. "Avesto" va dehqonchilik an'analari xususida ayrim mulohazalar. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2005. – №. 1 – 2. – 115- b.
18. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Fan. Toshkent, 1986. – 41- b.
19. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent-2007. 148-b
20. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent-2007. 148-b

- 21.Usmonov A. "Nomoddiy madaniy meros milliy qariyat" "Yangi o'zbekistonni barpo etishda san'at va madaniyatni rivojlantirishdagi muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy konferensiya. 2022-yil 5-oktabr. 607-611 bet
- 22.Usmonov A. "Ona allasi jamiyat intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil" "OTMlarda xotin-qizlarning intellektual va ijtimoiy maqomini yuksaltirishning gender omillari" mavzusidagi xalqaro konferensiya 2022-yil 28-sentabr
- 23.Usmonov A. Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar. Fardu.Ilmiy Xabarlar.1-2023. 241-b
- 24.Usmonov A. Nomoddiy madaniy meros va uni muhofaza qilish masalalari. European Journal of interdisciplinary Research and Development. 04.2023. Vol-14. 325-b